



**DARVISH ALI CHANGIY VA ZAMONDOSHLARIDA FAZOVIIY  
(KOSMOLOGIK) 12-MAQOM FALAK BURJLARI NAZARIY  
TAMOYILLARI.**

*Bexruz Hamidovich Boltaev*

Buxoro davlat universiteti San'atshunoslik fakulteti Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrası  
oqituvchisi

Hozirgi kunda kelajagimiz bunyodkorlari bo'lmish o'quvchilarni ma'naviy yetuk, aqliy barkamol, jismonan sog'lom, milliy, madaniy qadriyatlarga ongli munosabatda bo'ladigan, shuningdek, fan sirlarini chuqur egallagan har tomonlama bilimli insonlar qilib tarbiyalash jamiyatimizni rivojlantirishga qaratilgan barcha vazifalar ichida ustuvor ahamiyat kasb etib turibdi. Ta'limning barcha bo'g'inlarida va fanlar yo'nalishlarida bo'lgani kabi o'quvchi-yoshlarni axloqiy, estetik, ma'naviy jihatdan yetuk va milliy g'oyalarimizga sadoqat ruhida tarbiyalash hamda ularning badiiy tafakkurini o'stirishda umumta'lim maktablarida "musiqa madaniyati" fani o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasi muhim o'rin egallaydi. Demak, o'qituvchilarning kasbiy shakllanganligi va amaliy faoliyatga tayyorgarlik darajasi zimmasidagi vazifalarni bajarishga nisbatan mas'uliyat bilan ijodiy yondashishi hamda o'z ustida qunt bilan ishlashi asosida ta'minlanadi. Buning uchun esa eng avvalo, ta'limning barcha bo'limlari uchun mutaxassis pedagog-murabbiylar tayyorlaydigan pedagogika oliy oquv yurtlarida har bir fan yo'nalishi bo'yicha ta'lim mazmunini takomillashtirib borish bo'lg'usi o'qituvchilarni o'z sohasi bo'yicha har tomonlama malakali kadrlar bo'lib yetishishlariga erishish lozim bo'ladi.

Shashmaqom movoraunnaxrning piru mo'jizasi va xalqlarning tarixiy hayoti va mamoti bilan hamnafas bog'langan musiqiy ramzimizdir. Mazkur tamoyildan 200 va undan ortiq asrlar davomida o'ziga xos davriy qarashlarda shakllanib, rivojlanib kelgan. Maqomlarning nafaqat nom-nishonalari, balki ular atrofida yuzaga keladigan fikr-mulohazalar ham doimiy almashib turadi — degan xulosa kelib chiqadi.

Darvish Ali Changiy va zamondoshlarida Fazoviy (Kosmologik) 12-Maqom falak burjlari nazariy tamoyillarida akss ettirilgan sanalar, bugungi jahon standartlari kosmologik burjlariga to'g'ri keladi va ushbu davr olimlarining ilmiy yechimi darhaqiqat tegishli fanlarning genezisi deyish o'rinlidir. Tom ma'noda Sharq tahlillari dunyoning Yevropa davlatlaridan oldin o'z yechimini topganligi bilan ahamiyatlidir.

Masalaning maqom atamalari va undagi tavsilotiga qarab o'z o'rnida 12 – maqqom tizimining tahlili ham ushbu burjlarning kesimida yaqqol tengma-teng ma'no va mantiqlanishining o'rinlanishida mohir sozandalarning xizmati beqiyosdir. Chunki ushbu bastakorlar ham ilm tizimidagi yo'nalishlardan xabardor bo'lgan holda va kelishilgan birlik xulosaidan kelib chiqib tuzilgan deyish o'rinlidir. Shuningdek, ilk marotaba Al-Forobiy va Ibn Sino iyqoot nazariyasi zamonaviylikda o'z yechimini topgan hamda Buxoro shashmaqomining 2400 yillik ildizini ro'yobga chiqarish bilan birga o'z sohasining yangi tizimli nazariy va amaliy ixtirolariga erishgan. ilk marotaba Sohibqiron harbiy musiqiy cholg'ulari konsepsiyasi, ilk marotaba Buxoro amirligining 9-ta tartibli "Nog'orachilar" va "orkestr" ijrolari majmuasi, An'anaviy musiqa tizimida yangi paydo bo'lgan nav va uslublar oldingilarini inkor qilmaydi.

**Darvesh Ali Changiy:** Buxoroda yashab ijod etgan bu ulug' musiqashunos, san'atkor hayotining so'nggi yillari Imomqulixon zamoniga to'g'ri keladi. Uning oxirgi yirik musiqiy



risolasi aynan shu Imomqulixonga bag'ishlangan. Ma'lumki, mazkur davr Movarounnahr tarixida ijtimoiy-siyosiy vaziyat o'zgarib, ko'proq diniy hurofotga yuz tutilgan payt edi. Madaniy-ma'rifiy sohada ham Temuriylar saltanatida oliy maqomda bo'lgan va buyuk cho'qqilarga erishgan nafis san'atlarga e'tibor kamaya boshladi. SHuning uchun Darvesh Alining musiqiy ta'limoti, davr taqozosiga ko'ra, Kavkabiyligidan boshqacharoq ehtiyojlarga qaratilganligi bilan xususiyatlanadi.

Bundan tashqari, badiiy ilmlar sohasida mukammal tarbiya topgan, she'riyat va musiqiy san'atlarga o'ta ishqiboz bo'lgan Ubaydulloxondan farqli ravishda Imomqulixon nafis san'atlarga uncha iltifotli bo'lmagan. SHul sababdan, allomai zamon Darvesh Ali CHangiy musiqa borasida ilmiy-nazariy qarashlar bilan bir qatorda bu fanning sharofati haqida hadis hikmatlar keltirish va zamondoshlar ongiga singib ketgan aqidalarga muvofiq rivoyat hamda afsonalarga tayanib fikr yuritishga majbur edi.

Marog'iyning "Maqosid al-alhon"ida musiqaning bosh omili bo'lmish nag'maning to'rtta asosiy manbai qayd etiladi. Birinchisi, hisob ilmi negizida hosil qilingan nag'malar. Ya'ni, past-balandligi sonlar nisbati bilan ifodalanadigan nag'ma birliklari. Ikkinchisi, handasa ilmi, ya'ni, cholg'u asboblaridagi torlarning uzun-qisqaligini o'lchash yo'li bilan yuzaga keltiriladigan nag'malar. Uchinchi, ilmi ta'ab, ya'ni, insonning irodasi va his-tuyg'ulariga (hayajon, sokinlik, qo'rquv, shijoat, g'am, shodlik va boshqalar) kabi ruhiyotga xos muvofiq sodir bo'ladigan nag'malar. To'rtinchisi, urf etilgan ilmlardan yuzaga keladigan nag'malar.« Risola qismidagi ma'lumotlar orasida Kavkabiyl ijodi, ayniqsa, uning Kulliyotini SHashmaqomga bog'langan tomonlari diqqatga loyiq. Uning unvoni "Zamonasining Xoja Abdulqodiri Mavlono Kavkabiyl Buxoriyl" — deb, iftixor etilgan. *O'zR FASHI inv.№ 468<sup>1</sup> raqamli qo'lyozmada riyoziy va tabiiyl ilmlardan ko'ra, an'anaviyl yo'l-yo'riqlar ko'proq o'rin oladi.* Uning birinchi bobida samo' va dafga oid hadislar, ikkinchi bobida ilmi musiqiyning kuy (alhon) va vazn (iyqo') asoslari bayon etilgandan so'ng, uchinchi bobida to'g'ridan-to'g'ri asl maqomlar va ularning tarmoqlari (sho'ba, ovoz va ranglar) ning yuzaga kelishiga oid urf-odatlar ifodalanadi. Mazkur bob: "Bilginki, Xoja Abdulqodir ibn Abdurahmon Marog'iy, Hoja Safiuddin ibn Abdumo'min va Sulton Uvays Jaloyirlar ta'kidlashicha, avval 7 payg'ambardan 7 maqom va Bobo Umardan qolgan yana bittasi bo'lgan" — degan jumla bilan boshlanadi. So'ngra har bir maqomni ulug'larga nisbat qilinishiga oid mufassal rivoyatlar keltiriladi: Rost-Odam Otaning Momo Havvo firoqi nidolari; Ushshoq-Nuh nolasi, Navo- Dovud hasrati; Hijoz- Sulaymonning shodlik kuylari; Iroq-Ayyubning mubtalolik sadolari; Husayniyl- Yoqub firoqi; Rahoviyl- Qur'oni Karim nozil bo'lganda Muhammad s.a.v. tilovat qilgan ohanglar, Busalik- Bobo Umar tuya yetaklaganda aytadigan kuy<sup>2</sup>.

a).Fazoviyl (kosmologik) o'n ikki (12)-maqom falak burjlari: Kulliyotning oliy maqom bilan bog'lanishida davom maqomlar yaratilib, bunda, yana Xoja Abdulqodirdan rivoyat qilinib, u o'zining "botin idroki" va "fahmi zohiri" bilan mazkur 8 maqomga yana to'rttasini Isfahon, Buzruk, Kuchak va Husayniylarni qo'shganligi bayon etiladi. Maqomlarning yuzaga kelishi masalasi munosabati bilan Darvesh Ali va Mavlono Kavkabiyl nomidan ilmi-advor ta'limotining muhim va chigal nuqtalardan birini tushuntiradi. U ham bo'lsa, butun maqomot tizimining tadrijiyl rivojlanishida asl parda va sho'balarning nomlari, tartibi va ularning ma'no-mazmuni bilan to'ldirilishi turlicha bo'lganligini e'tirof etilishidir.

Болтаев Р. "Хоразм Танбур ва дутор мақомларининг муносабатларига доир" // Шашмақом сабоқлари (маъруза ва мақолаларнинг иккинчи тўплами) – Тошкент: 2005. – Б.134.  
Матёқубов О. Мақомот. –Тошкент: Муסיқа, 2004. – 400 б.



«Darvesh Ali Aflotun zamonlarida taraqqiy topgan fazoviy (kosmologik) qarashlarga ko'ra, 12 maqom falak burjlari; 1. Rost-Hamal, 23.03-22.04 2. Isfahon-Savr, 23-04.22.05. 3. Iroq-Javzo, 23.05-22.06. 4. Kuchak

➤ Saraton, 23.06-22.07.5. Buzruk-Asad, 23.07-22.08.6. Hijoz-Sumbula, 23.08-22.09. 7. Busalik-Mezon, 23.09-22.10. 8. Ushshoq-Aqrab, 23.10-22.11. 9. Navo-Qavs, 23.11-22.12. 10. Husayniy-Jadiy, 23.12-22.01. 11. Zangula-Dalv, 23.01-22.02.02. 12. Rahoviy-Hutdan 23.02-22.03.<sup>3 4</sup> taralganligi qayd etiladi.<sup>5</sup>

Shu bilan barobar 12 maqom Hazrati Muso hassasini toshga urganda paydo bo'lgan 12 buloqdan chiqqan ovozlardan iboratligi haqidagi mashhur afsona ham tilga olinadi»-deyilgan.

Undan keyin yana hayotiy voqealarga qaytib, ustozlar o'z bilim va mahoratlarini ishga solib, har bir maqomning yuqori va pastki bo'lagini ajratib, ikki sho'ba, ikki maqomni qo'shilishidan bir ovoz va ikki ovozni birlashtirib, bir rang qilganliklari tushuntiriladi. Ya'ni ushbu davr olimlarining ilmiy qarashlaridan kelib chiqib 12- maqom Buxoro ajdodiy san'ati bo'lmish "Shashmaqom"ga aylana borgan.

«Darvesh Ali risolasida barqaror odat tusini olgan maqom atamalari bilan bir qatorda, amaliyotga tadbiiq qilinmaganlari ham mavjudligi e'tirof etiladi. Faqat Husayniy-Zerkash, Kuchakni-Zerfakand, Iroqni-Qavro, Zangulani-Nahovand, Rostni-Ummul advor, Hijozni-Nigoriy, Busalikni-Chakoviy, Navoni-Nag'mai Dovudiy, Ushshoqni-Tarona, Buzrukni-Avj<sup>6</sup> deyilganligi tilga olinadi. Ushbu nuqtai nazardan iyqoot masalalariga bag'ishlangan 4-bobni "Mutaorif 17 usul bahri va 24 g'ayri mutaorif usul ma'rifati haqida" — deb nomlanishining o'zi alohida diqqatga sazovor. Mazkur bob — "Bilginki, 12 usul qadimiydir"<sup>7</sup> - deb boshlanadi. Bunday "qadim" atamasi "sara", "mumtoz" ma'nosini anglatadi. Ya'ni, tajribada pishib yetilgan, ajdodlar tomonidan e'zozlangan mo'tabar usullar demakdir.

Darvesh Ali risolasining boshqa bir qiziqarli jihati mumtoz usullarning jonzotlar harakati bilan bog'liq ekanligi haqidagi naqlar misol keltirilishidadir. Jumladan, «Zarb-ul qadim» deb nomlanadigan ibtidoiy usul yurak tomirlarining urishidan olinganligi to'g'risidagi mulohaza musiqiy ahli orasida juda keng tarqalgan. Duyak usuli xo'roz ovozidan, Foxitiy-yovvoyi kabutar, Saqiyl-to'ti, Ramal jul (tovus) qushi navosidan, Gaxvogiy-go'dak sadosidan, Bulujiy-misgarlar damining tovushidan kelib chiqqanligi to'g'risidagi chiroyli gaplar ham muxlis va shinavandalar orasida maroq bilan hangoma qilingan»-deyilgan.<sup>8</sup>

Qancha rivoyat va afsonalar pesh qilinmasin, urf etilgan usullar aslida musiqa ilmini o'ziga yaqin tutgan ulamolar ijodiga mansubligi jiddiy qayd etiladi. Xususan, Mirzo Ulug'bek usul ilmiga baland havas qo'yganligi, Sulton Husayn Boyqaro yaratgan 17 usul hamda Vazir Alisher Navoiy ijodiga mansub 7 usul elda ma'lumu mashhur bo'lgan, deganligi ham diqqatga sazovordir. Ammo mumtoz musiqa negizidagi usullar advor ta'limotining peshvolari tomonidan ushbu fanning ilmiy-nazariy tamoyillari asosida ishlanganligi va bu sohada Xoja Abdulqodir "Sar-omadi advor" martabasini egallaganligi alohida ta'kidlanadi. Sarlavhada ko'rsatilgan 17

Рахимов Б. Болтаев Р. Хоразм мақомларининг янги жилолари//Шашмақом сабоқлари (маъруза ва мақолаларнинг иккинчи тўплами) – Тошкент: 2005.–Б.130.

Saidiy S.B. O'zbek musiqassi tarixi /Darslik. S.Salim Buxoriy "Durdon" nashriyoti. 2020 yil. 99-104 betlar.

ЎзР ФА ШИ. Қўлёзмалари, инв№8857,8858

Ражабов Мақомлар нашрга тайёрловчи ва махсус муҳаррир О.Иброҳимов Тошкент: 2006. -Б 141.

Saidiy S.B. O'zbek musiqassi tarixi /Darslik. S.Salim Buxoriy "Durdon" nashriyoti. 2020 yil. 99-104 betlar.



mutaorif usul aynan shu Xoja Abdulqodir merosi va qolgan 24 g'ayri mutaorif usullar boshqa ustozlar tomonidan yaratilganligini Darvesh Ali ko'rsatib o'tadi.

Nihoyat, Darvesh Alining musiqiy risolasi ilmiy nazariy yo'nalishi Kavkabiynikidan farqli ravishda musiqiy ilmlarga qaratilganligining yana bir isboti shundaki, mazkur bobda oldin amaliy bilimlar sarhisob etilib, mumtoz 17 usul mundariyasi keltirilgandan so'ng, nazariy tushuncha (niqra, zarb, bo'g'in, bahr)lar qo'shimcha o'rnida beriladi. Bu bo'lak foyda (ya'ni "qo'shimcha") deb, nomlanadigan alohida sarlavha bilan ajratiladi.

#### Adabiyotlar.

1. Ражабов Т. И. тическая классификация узбекской детской народной музыки и игр //Наука, образование и культура. – 2020. – №. 3 (47). – С. 61-63.
2. Madrimov B., Rajabov T., Nurillaev F. Teaching Bukhara children folk songs in music lessons as an actual problem //International Journal of Psychosocial Rehabilitation. – 2020. – Т. 24. – №. 4. – С. 6049-6056.
3. Ражабов Т. И., Ибодов У. Р. Обеспечение национального наследия в обучении песням бухарского детского фольклора на уроках музыки //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 21-2 (99). – С. 55-58.
4. Ражабов Т. И. Педагогические возможности использования детских фольклорных песен в духовно-нравственном воспитании младших школьников //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 5-2 (83). – С. 34-37.
5. Раджабов Т. И. Описание вековых ценностей в песне " туговое дерево-балх" и его место в воспитании учащейся молодежи //Россия-Узбекистан. Международные образовательные и социально-культурные технологии: векторы развития. – 2019. – С. 70-71.
6. Ражабов Д. З., Ражабов Т. И. Формирование и развитие узбекской народной лирики //Международная образовательная деятельность как фактор развития и сотрудничества высших учебных заведений в современном поликультурном мире. – 2018. – С. 207-212.
7. Rajabov T. Educational importance of folk songs in primary education //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2021. – Т. 1. – №. 01. – С. 72-79.
8. Раджабов Т.И., Орипов Н.О. Обучение фольклорным песням бухарских детей в системе непрерывного образования как долзарбская методологическая проблема // ЕВРОПЕЙСКИЙ ЖУРНАЛ ИННОВАЦИЙ В НЕФОРМАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 409-412.
9. Rajabov T. I., Ibodov O. R. O'zbek Xalq Musiqa Merosda O'quvchilarni Vatanparvalik Ruhida Tarbiyalash Vositasi //Ижтимоий Фанларда Инновация онлайн илмий журнали. – 2021. – Т. 1. – №. 6. – С. 139-145.
10. Ражабов Т. И. УСОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ОБУЧЕНИЯ БУХАРСКИМ ДЕТСКИМ ФОЛЬКЛОРНЫМ ПЕСНЯМ В СРЕДНЕЙ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ШКОЛЕ //Наука, техника и образование. – 2021. – №. 2-2 (77). – С. 84-86.
11. Раджабов Т.И., Рутамова М.Ф. Формирование духовно-нравственных качеств учащихся через народные песни в системе непрерывного образования – актуальная педагогическая проблема // ЕВРОПЕЙСКИЙ ЖУРНАЛ ИННОВАЦИЙ В НЕФОРМАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 404-408.



12. Ражабов Т. И. Ўқувчи-ёшларга ўзбек миллий мусиқа фольклори намуналари воситасида эстетик тарбия бериш //Science and Education. – 2021. – Т. 2. – №. 11. – С. 1094-1103.
13. Ражабов Т. И. ХАҚ ҚЎШИҚЛАРИ ОРҚАЛИ ЎҚУВЧИ-ЁШЛАРДА МИЛЛИЙ ТАФАККУРНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ОМИЛИ //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – Т. 2. – №. 1. – С. 364-368.
14. Раджабов Т.И., Раджабов Д.И. Формирование духовно-нравственных качеств учащихся через народные песни – актуальная педагогическая проблема // ЕВРОПЕЙСКИЙ ЖУРНАЛ ИННОВАЦИЙ В НЕФОРМАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ. – 2022. – Т. 2. – №. 1. – С. 331-335.
15. Rajabov T. I. THE ROLE OF BUKHARA FOLKLORE SONGS IN YOUTH EDUCATION IN THE SYSTEM OF CONTINUOUS EDUCATION //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 884-889.
16. Ибодович Р.Т. Эстетическое воспитание школьников через национальные ценности (на примере бухарского детского фольклора) //Европейский журнал исследований и размышлений в области педагогических наук. – 2020. – Т. 8. – С. 237-240.
17. Тўхтасин Р. И. ЎЗБЕК ХАЛҚ ҚЎШИҚЛАРИ ВА ИЖРОЛАРИ ҲАҚИДА //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2022. – №. Special issue. – С. 64-71.
18. Ибодович Р.Т. ВОСПИТАТЕЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ ДЕТСКИХ НАРОДНЫХ ПЕСЕН НА ЗАНЯТИЯХ МУЗЫКАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ //Европейский научный журнал. – 2021. – Т. 2. – №. 6. – С. 139-141.
19. Исаев С. и соавт. Влияние применения удобрений на урожайность хлопчатника сорта Бухара-102 на засоленных хлопковых полях Узбекистана //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2021. – Т. 258. – С. 03015.
20. Rajabov T. I. O 'kuvchi-yoshlarga o 'zbek milliy musiqa folklori namunalari vositasida estetik tarbiya berish //Science and Education. – 2021. – Т. 2. – №. 11. – С. 1094-1103.
21. Isaev S., Rajabov T., Dolidudko A. Influence of inorganic fertilizers on cotton crop yield in saline soils //Bulletin of Science and Practice. – 2018.
22. Rajabov T. I. ticheskaya klassifikatsiya uzbekskoy detskooy narodnoy muzyki i igr //Nauka, obrazovanie i kultura. – 2020. – Т. 3. – С. 47.
23. Rajabov T. I., Ibodov U. R. Obespechenie natsionalnogo naslediya v obuchenii pesnyam buxarskogo detskogo folklor na urokax muzyki //Vestnik nauki i obrazovaniya. – 2020. – С. 21-2.
24. Ражабов Т. И. Мактабда мусиқа таълимида фольклор қўшиқларининг ўрни //Тошкент давлат педагогика университети. Илмий-назарий ва методик журнал. Тошкент. – 2016. – С. 122-126.
25. Ibodovich T. R. PRACTICAL SITUATION OF TEACHING UZBEK MUSICAL FOLKLORE IN THE CONTINUOUS EDUCATION SYSTEM //International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE) DOI. – Т. 10. – С. 708-716.





26. Rajabov T. I. Pedagogicheskie vozmojnosti ispolzovaniya detskix folklornyx pesen v duxovno-nravstvennom vospitanii mladshix shkolnikov //Vestnik nauki i obrazovaniya. – С. 5-2.
27. Rajabov T. I. The Mechanism of Teaching Uzbek Musical Folklore //Volume-1| Issue-1 Available online@ <https://procedia.online/index.php/philosophy>//Procedia of Philosophical and Pedagogical Sciences ISSN.
28. Раджабов Т.И. УЗЛУКСИЗ ТАЛИМДА ФОЛЬКЛОР КО'ШИКЛАРИНИ ЙДЖРО ЭТИШИХГ О'ЗИГА ХОС УСЛУБЛАРИ //Научный прогресс. – 2021. – Т. 1. – №. 5. – С. 581-585.
29. Мадримов Б.К., Раджабов Т.И. Узбекский обрядовый фольклор и его особенности //Нексус: Журнал достижений инженерной науки. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 53-56.